



**O‘ZBEK MILLIY LIBOSLARIDA ATLAS VA ADRAS MATOLARINING  
QO‘LANILISHI**

**Turdiyeva Shahzoda Eshdavlat qizi**

*Termiz davlat pedagogika institute*

*Aniq va tabiiy fanlar fakulteti*

*Texnologiya ta'lim yo'nalishi talabasi*

**Annotasiya.** Kiyimning sifati va ko'rki modaning asosiy talabidir. Xozirgi kunda o'zbek milliy matolarimizni to'qish san'ati xamda bu matolar uchun zarur xom-ashyo tabiiy ipak tolasini ishlab chiqarish, ya'ni ipakchilik tarmog'i jadal sur'atda rivojlanib bormoqda. "Ekspluatatsion xususiyatlar" deganda matolarning havo o'tkazuvchanligi, uzayish va ishqalanishga ta'siri, chidamliligi, kirishuvchanligi, rangining chiqish darajasi, bichimda shakl saqllovchanligi kabi sifatleri nazarda tutiladi.

**Kalit so'zlar:** kiyim, mato, to'qish, san'at, ipakchilik, beqasam.atlas,adras.

**Annotasiya.** Kiyimning sifati va ko'rki modaning asosiy talabidir. Xozirgi kunda o'zbek milliy matolarimizni to'qish san'ati xamda bu matolar uchun zarur xom-ashyo tabiiy ipak tolasini ishlab chiqarish, ya'ni ipakchilik tarmog'i jadal sur'atda rivojlanib bormoqda. "Ekspluatatsion xususiyatlar" deganda matolarning havo o'tkazuvchanligi, uzayish va ishqalanishga ta'siri, chidamliligi, kirishuvchanligi, rangining chiqish darajasi, bichimdashakl saqllovchanligi kabi sifatleri nazarda tutiladi.

**Kalit so'zlar:** kiyim, mato, to'qish, san'at, ipakchilik, beqasam.atlas,adras.

**Annotation.** The quality and beauty of clothes are the main requirements of fashion. Today, the art of weaving our Uzbek national fabrics and the production of natural silk fiber, which is a necessary raw material for these fabrics, is developing rapidly. "Performance" refers to the properties of fabrics such as air permeability, elongation and friction, durability, permeability, color fastness, shape retention.

**Key words:** clothing, fabric, weaving, art, silk, beqasam.atlas,adras.

Kiyimning sifati va ko'rki modaning asosiy talabidir. Xozirgi kunda o'zbek milliy matolarimizni to'qish san'ati xamda bu matolar uchun zarur xomashyo tabiiy ipak tolasini ishlab chiqarish, ya'ni ipakchilik tarmog'i jadal sur'atda rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, birinchi Prezidentimiz I.Karimovning 2010 yil 30 martdagi "Xalq badiiy xunarmandchiligi va amaliy san'atini rivojlantirishni yanada qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni ushbu soxada va tarmoqlar taraqqiyoti uchun muxim omil bo'lmoqda. Xonatlas, adras, beqasam, shoyi, olacha singari milliy matolarimizning jilosi, ulardagi naqshlarning ko'zni quvnatishi, ranglarining uyg'unligi barchani lol





qoldiradi. Dunyoning turli mamlakqlarida bu go'zallikka boy matolarimizdan zamonaviy uslubdagi liboslar tikilayotgan va ular kishilar egnida tovlanayotganixammamizni faxrlantiradi. Tabiiy ipak matolarimizdan foydalanib, liboslar kolleksiyasini yaratayotgan dizaynerlarning ishlarida zamonaviylik va milliylik ruxi uyg'unlashmoqda. Ma'lumki, tabiiy ipak tolalaridan tayyorlangan gazlamalar xamda ulardan tikilgan liboslar xar doim o'z chiroyi va yengilligi bilan e'tiborni tortadi. Yildan-yilga qayta ommalalashib borayotgan bu matolar zamonaviy libos ta'siriga tushushi barobarida, uzi xam ekspluatatsion va gigiyenik xususiyatlari, sifat ko'rsatkichlari orqali xozirgi libos dizayniga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu milliy boyligimiz - matolarimizning ekspluatatsion xususiyatlarini hisobga oladigan bo'lsak, ulardan doimiy kiyishga mo'ljallangan, kundalik liboslar tikish maqsadga muvofiq kelmaydi. Nima sababdan bunday to'xtamga kelganimizni izohlashdan oldin matolarning ekspluatatsion xususiyatlari muammosiga e'tibor qaratmoqchimiz. "Ekspluatatsion xususiyatlar" deganda matolarning havo o'tkazuvchanligi, uzayish va ishqalanishga ta'siri, chidamliligi, kirishuvchanligi, rangining chiqish darajasi, bichimda shakl saqlovchanligi kabi sifatlari nazarda tutiladi. Bu ko'rsatkichlar puxta o'rgangan holda, libos loyixasi yaratilishi lozim. Laboratoriyada matolarimizning ushbu sifatlarini o'rganib, ipak matolarimizning kundalik libos uchun noqulayroq, ekanligiga ishonch xosil qildik. Misol tariqasida, bir necha matolarimiz xususida alohida to'xtalib o'tamiz. Marg'ilon xonatlas va ushbu atlas ko'rinishi va to'qilishi xon atlas tipidagi ipak gazlamalarimizning chidamlilik, "ishonchlilik" xususiyatlarini o'rgansak, bu mashxur va mato xavoni yaxshi o'tkazmasligi, yuvish jarayonidan so'ng rangining asl xolati saqlanib qolmasliga xamda yaxshigina kirishishi, ya'ni yuvilganidan keyin torayishi libos tikish vaqtida ma'lum qiyinchilik tug'dirishi birmuncha qulaysizliklar tug'diradi. Xonatlas yoki atlas matolaridan tayyorlangan liboslar, asosan, kimyoviy usulda tozalanganida go'zalligi va tovlanuvchanligini bir qadar saqlab qolishi mumkin. Biroq, kir yuvish mashinasida, uy sharoitida yuvilganda, agar unga aloxida avaylab yondashilmasa, mato o'z ko'rkini saqlab qololmaydi. SHuningdek, uning xavoni qiyin o'tkazishini xisobga olib, atlasdan kengroq bichimda kiyim tikilsa, bunday libos qizlarimiz, ayollarimizga unchalik ma'qul kelmaydi. Atlasdan tikilgan tor bichimli ko'ylakdan esa atigi bir necha bor kiyilgandan so'ng choklari va chokining atrofida tolalar ajrab qoladi. Shu bois atlasdan xar doim kiyiladigan kundalik liboslar emas, balki tadbirlarda, bayramlarda kiyiladigan kiyimlar loyihasi yaratilsa va tikilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Azaliy qadriyatlarimizni o'zida ifoda etgan ushbu go'zal matolar milliy boyligimiz sanaladi. Unda xalqimizning uzoq hamda shonli o'tmishi, qadimiy an'analari, estetik dunyoqarashi, didi va o'ziga xos xususiyatlari mujassam. "Atlas" so'zi arab tilidan tarjima qilganda tekis, silliq degan





ma'noni anglatadi. U tanda ipi ham, arqoq ipi ham tabiiy ipakdan to'qiladigan bir yuzlama silliq mato hisoblanadi. Alohida ishlov berib atlasga jilo beriladi. Shunga ko'ra u tovlanib turadi. Atlasning tabiiy ipakdan to'qilgan eng a'lo navi sakkiz tepkili xonatlas deb ataladi. Xonatlasning barcha siri uning tuzilish hamda to'qilish usulidadir.

Atlas to'qish Marg'ilonda juda qadimdan rivojlangan va boshqa joylarga tarqalgan. XX asr boshlarida bu yerda ko'plab atlas to'quvchi kosiblar bo'lishgan. 2017 yilda o'zbek ipak matolarining to'qish texnologiyasi YUNESKOning insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgani milliy matolarimizning jahon miqyosidagi yuksak o'rini namoyon etadi. Bugungi kunda yo'qolib borayotgan an'analarni asrab-avaylash, jumladan, tarixiy matolarni qayta tiklash tobora muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ipak matolar orasida eng mashhuri abri atlas va xonatlasdir. Ularning o'ziga xosligi – bezak va gullar matoga emas, balki o'rish ipining o'ziga chiziladi. Aytaylik, uzunligi 200 metr, eni 40 santimetr atlasni to'qish uchun 3 ming 600ta ipak tolani bir-biri bilan uyg'unlashtirish lozim. Bitta tola uzilsa ham mahsulot sifatiga putur yetadi. Shu bois matoga yangi element qo'shish juda qiyin. Iplarni "abr" usulida bo'yash ham katta mahorat talab etadi. E'tiborlisi, barcha ranglar tabiiy usulda, bo'yoq beruvchi giyohlardan tayyorlanadi. Shu bois ular o'z sifatini yo'qotmaydi, ranglar qorishib ketmaydi.

Atlasdan ayollar liboslari, ko'rpa, ko'rpachalar, erkaklar qiyig'i va boshqa buyumlar tikiladi. Adrasdan esa ayollarning kiyim-kechaklari bilan birga chopon, ko'rpa, ko'rpachalar tikiladi.

Bugungi kunda ko'plab hunarmandlarimiz tomonidan qadimiy namunalar asosida ishlab chiqarilayotgan "O'zbekiston go'zali", "Marg'ilon", "Bibixonim", "Begoyim", "Kelinchak atlas", "Bargi karam", "Nomozshomgul", "Guldasta", "Navro'z", "Qo'chqorshox" deb nomlangan ipak matolari dunyo miqyosida e'tirofqa sazovor.





Albatta, biz milliy matolarimizni yomonlamoqchi emasmiz. Axir ular bizning milliy iftixorimiz, g'ururimizdir! Biroq, bu go'zallik, o'z o'rnida ishlatilmasa, ya'ni matolarimizdan faqat bayramona, ma'lum bir kunlarga xos liboslar tikishsa, maqsadga muvofiq demoqchimiz, xolos. Yosh dizaynerlarimiz xam, asosan, saxna liboslarini yaratishmoqda. Bu esa fikrimcha, zamonaviy modada uslublar cheklanishiga odib keladi. Bunday xolat yuzaga kelmasligi uchun matolarimizni to'qishda ishlatiladigan tolalarning buyalishi jarayoniga e'tibor qaratish lozim. Ilgarigi milliy matolarimiz bilan hozirgi to'qilayotganlarini solishtirganimizda, qadimgi atlas-u beqasamning sifat ko'rsatgichlari yuqori ekanligi, rangi juda uzoq muddat saqlanganligiga guvoh bo'lamiz. Bundan ayon bo'ladiki, hozirda ipak tolalarning bo'yalishda kamchiliklarga va ehtimol, ayrim e'tiborsizliklarga yo'l qo'yilmoqda. Xulosa o'rnida aytmoqchimizki, mato to'quvchi ustalarimiz avvalgi tabiiy bo'yoqlar sirini, bo'yash jarayonini qayta o'rganib chiqishsa va shu uslubni ish jarayoniga tatbiq etishsa va xar jixatdan mukammal milliy matolarimizni yaratishsa, balki dizaynerlarimiz, tikuvchi hunarmandlarimiz matolarimizdan kundalik liboslar tikishga xam dadil qo'l urishardi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O'zbekistan, 1017. - 488 b.
2. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.- T.:O'zbekiston, 2017.-1046.
3. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratok O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: O'zbekiston, 2016. - 56 b.
4. Xudoyberdiyev, M. (2021). "Manzara rangtasvirini" o 'qitishda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning usullari. *Журнал музыки и искусства*, 2(2).

